


Ustunning hikoyasi



16:35 / 11 январь 1179

Assalomu alaykum, azizlar. Men sizga o'zimni tanishtirishdan oldin ba'zi bir narsalarni aytib bermoqchi edim.

Allohning haq rasuli Muhammad alayhissalom Madinaga hijrat qilganlaridan keyin bu yerda bir masjid qurdirdilar. Masjidning uzunligi yuz gaz, eni qirq gaz edi. Bu muborak binoning tomini ko'tarib turguvchi ustunlari bor edi. Men o'sha ustunlarning biri edim. Ismim Xannona. Ana, tanishib ham oldik.

Ustalar meni xurmo daraxtidan yo'nishgan edi. Maqtanchoq ekan, demasangiz aytaman. Men ustunlar orasida eng baxtiyori edim. Men uchun haftada shunday bir kun bor ediki, men uni orziqib kutar, hatto tushlarimda ham ko'rib chiqar edim. Bu kun muborak Juma kuni edi. Masjid turli tomonlardan kelgan namozxonlar bilan to'lib-toshardi. Ular Allohning haq Payg'ambari Muhammad alayhissalomning muborak so'zlari – xutbalarini jon quloqlari bilan eshitishar edi. Ayniqsa, juma namozi xutbasini o'qish onlari men uchun behad quvonchli bo'lardi. Nimaga desangiz, Payg'ambarimiz tik turgan holda menga suyanib xutba aytardilarda-da! Men bunday paytlarda nafaqat masjid tomini, balki yetti qavat osmonni ham ko'tarishga tayyor edim. Ha, ana shunday kuchga, qudratga to'lar edim. U zoti muborakning ikki kuraklari orasida payg'ambarlik muhri – kattakon xol bor edi. Men buni ko'rib, his etib... Eh-he, bu huzurni ta'riflab adog'iga yetish qiyin.

Bir kuni sahoba Tamim Uddoriy roziyallohu anhu Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamdan:

«Yo Rasululloh, xutba aytishingiz uchun sizga bir minbar yasasak, nima deysiz?» deb so'radi. Muhammad alayhissalom rozilik bildirdilar.

Men avvaliga hech narsaga tushunmadim. Sahobalar aytgan narsalarini yasab, masjidga olib kirib qo'yishdi. Hafta o'tib, juma kuni ham yetdi. Biroq...

Tavba, nima bo'lyapti o'zi?! Allohning rasuli har safargidek mening yonimda to'xtamadilar. To'g'riga o'tib ketdilar. E-ha, tushunarli, axir ular anavi minbar tomonga ketyaptilar-ku! Bundan chiqdi, xutbani o'sha yerda ado etar ekanlar-da. Evoh... Beixtiyor ingrab yubordim. Mungli shikasta ovozim masjid ichini tutdi. Namozxonlar bu qanaqa ovoz bo'ldi ekan, deb chor atrofga alanglashdi. Rasululloh ham avvaliga hech narsani payqamadilar. Minbarga chiqib xutbaga kirishdilarki, yetim boladek bor ovozda yig'lab yubordim. Ha, bag'rim yonib, tanamga o't tushgan edi go'yo. Vujudim bolta tekkandek qarsillab chatnashga turdi. O'tirganlar hamon hech narsani anglab yetolmas, yig'i tovushini eshitishardi-yu, egasini topolmay hayron edilar.

Muhammad alayhissalom birdan hushyor tortdilar. U zot mening holimni anglab yetgan edilar. Minbardan tushib, mening yonimga keldilar, muborak qo'llari bilan quchdilar. Bundan men battar yig'lashga tushdim. Namozxonlar bu qanday sir, qanday mo'jiza degandek, Payg'ambarimizga yuzlanishdi. Allohning Rasuli esa bunday dedilar:

- Men har juma bu ustunga suyanib, Allohni zikr qilar edim. U bundan baxtiyor edi. Endi bu ne'matdan bebahra qolganiga boladek o'ksib, yig'lamoqda.

Buni eshitib, namozxonlarning ham ko'ngli buzildi. Masjid ichi yig'i-sig'idan junbishga keldi. Shunda Rasululloh:

- Allohga qasamki, buning yig'isini to'xtatmasam, qiyomatgacha shundoq bo'zlagan bo'lar edi, - dedilar.

Payg'ambarimiz menga: «Xannona - yig'lovchi ustun» deb nom qo'ydilar. Keyin tabassum bilan menga murojaat qildilar:

- Ey Xannona, xohlaysanmi, seni qaysi bog'dan kesib keltirishgan bo'lsa, o'sha

yerga qayta ekaman. Yangidan ildiz otib, ko'karasan. Agar buni xohlamasang, jannatga o'tqazaman. Jannat ahllari – Allohning do'stlari sening mevalaringdan yeyishadi. Shu ikkisidan birini ixtiyor qil.

– Yo Rasululloh, – dedim men quvonib. – Jannatni ixtiyor etaman, jannatni! Bu vaqtinchalik dunyo bo'stonidan abadiy jannat a'lo. Mevamni mo'min musulmonlar, Allohning do'stlari yeyishadi.

Mening so'zlarimni juma namoziga to'plangan hamma eshitdi. Lekin ular jonsiz bir ustunga, ya'ni menga til bitganidan ko'p ham ajablanishmadi. Nega desangiz, haq payg'ambar – Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga mo'jizalar ato etish Allohga oson ekaniga ular allaqachonoq iymon keltirishgan edi.

Alloh Iso alayhissalomga o'lganlarni tiriltirish, Muso alayhissalomga hassani ajdarhoga aylantirishdek mo'jizani bergan bo'lsa, Muhammad alayhissalomga ham juda ko'p mo'jiza bergan edi. Bu avvalda kelgan mo'jizalarning eng ulug'i edi.

Qachonki oxirzamon bo'lsa, men ham jannati odamlar bilan jannatga ko'chaman. Zarang ustundan ajoyib xurmo daraxtiga aylanaman. Shirin-shakar xurmolarimni jannatiylar terib yeyishadi. Axir meni Payg'ambarimiz shafolatlariga oldilar-da! Bundan ham ulug', bundan ham qutlug', bundan ham yuksak baxt bormi?! Ikki dunyo saodatiga yetmoq deb shuni aytishsa kerak.

Siz bilan ham Alloh nasib etsa, jannatda uchrashamiz.

Erkin bobo
«Hilol» jurnalining 8(53) sonidan